

TRANSPORT SOHASIDA KADRLAR KASBIY KOMPETENSIYASINING AHAMIYATI

Gulmatova Ziroat Manapovna

Toshkent Temir yul texnikumi, ishlab chiqarish ta'lim ustasi

Muratova Dildora Abdumannapovna

Toshkent davlat transport universiteti dotsent v.b.

Nazarova Nilufar Jo'rayevna

Toshkent davlat transport universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy taraqqiyotga erishish ko‘p jihatdan soha bo‘yicha tayyorlanayotgan kadrlarning bilimi, ko‘nikmasi, malaka va kasbiy kompetensiyalariga bog‘liq. Maqolada kadrlarni o‘qitish, xodimlarning malakasini tadqiq etish, ularni yanada rivojlantirish va takomillashtirish kabi masalalar ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *faoliyat, jamoa, xodimlar malakasi, optant faza, adept faza, moslashuv fazasi, internal fazasi, hurmat fazasi, murabbiylik va ustozlik fazasi, kasbiy yo‘naltirish, kompetensiya.*

2020 yilda dunyoda ro‘y bergen COVID-19 pandemiyasi ko‘plab sohalarda bo‘lgani kabi transport soha ishchi-xodimlari faoliyatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida transport sohasini yanada tubdan takomillashtirish, sohada faoliyat olib borayotgan xodimlarni har tomonlama ijtimoiy jihatdan qo’llab-quvvatlash, ijtimoiy masofani saqlagan holda ishslash, ularning salomatligini asrash, sohada tibbiy xizmatni kuchaytirish, texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiena qoidalariga amal qilgan holda faoliyat olib borishni yanada dolzarblashtirdi. Keyingi vaqtarda ro‘y bergen voqeа va hodisalar dinamikasi barcha sohalarda bo‘lgani kabi transport sohasini ham keng tadqiq etish va tayyorlanayotgan kadrlar malakasini oshirishga nisbatan ehtiyoj yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Aynan shu talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda transport sohasida ham bugungi kunda mamlakatimizda tub islohotlar amalga oshirilib, ixtisoslashtirilgan oliy ta‘lim muassasalari tashkil etilib, ularning faoliyatini takomillashtirish borasida bir qator vazifalar belgilanib, amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 maydagi “Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4703-sonli Qarorida ko‘rsatilgan:

“transport sohasi ehtiyojlaridan kelib chiqib, mehnat bozoridagi raqobatbardosh oliy ma‘lumotli mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlarni, shuningdek, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

transport sohasi uchun kadrlar tayyorlashning uzlusiz tizimini yaratish, tizimdagи akademik litsey hamda sohaning professional ta‘lim muassasalari ta‘lim dasturlarining uzlusizligi va uzviyligini ta‘minlash [1] kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Kishilarning eng ko‘p qismi o‘z qobiliyatlarini va xususiyatlariga mos keladigan kasblarda band bo‘lsalargina, butun millatning ishlab chiqarish samaradorligi eng yuqori darajaga erishishi mumkin [2]. Bu masalani hal qilishda kasbiy yo‘naltirish va tanlash jarayonining ahamiyati beqiyosdir. Masalan, tegishli manbalar [3] shuni ko‘rsatadi, ishdan bo‘shashga qaror qilgan mutaxassisning ishlab chiqarish samaradorligi bir oy davomida 10-15%ga, ishdan bo‘shash davrida esa 30-40%ga pasayadi. Xuddi shunday holatni ishga yangi qabul qilingan mutaxassisda ham kuzatish mumkin. Kadrlarning bunday o‘zgaruvchanligi iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazadi. Birgina shu muammoni hal qilish orqali ham iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin bo‘ladi.

Hozirgi vaqtida respublikada ijtimoiy himoya va qo‘llab-quvvatlash faoliyati turli soha mutaxassislari - sotsiologlar, psixologlar, pedagoglar, huquqshunslar, tibbiyot xodimlari va boshqa soha vakillari tomonidan amalga oshirilmoqda [14,15,16,17,18,19,20,21]. Turli soha mutaxassislarining integratsiyalashishi kerakli va zarur ishdir. Shu sababli Toshkent davlat transport universitetida 2021-2022 o‘quv yilida yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) yo‘nalishi, 2022-2023 o‘quv yilidan esa Siyosatshunoslik, Sotsiologiya yo‘nalishlari tashkil etildi.

Ushbu yo‘nalishni bitirgan mutuxassislar qo‘yidagi sohalarda faoliyat olib borishlari mumkin bo‘ladi:

1. transport sohasi tarmoq yo‘nalishlarida (taksi xizmati, temir yo‘l xizmati, logistika sohasi, aeroport xizmati va b.);
2. aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida (transport xodimlari kasaba uyushmalarida, mahallalarda, pensiya jamg‘armasi va b.);
3. ijtimoiy xizmatlar tizimi (oziq-ovqat bilan ta’minlash, uy ishlariga ko‘maklashish, dori-darmonlar yetkazib berish va b.);
4. nodavlat va notijorat ijtimoiy tashkilotlarida (nogironlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi, yoshlar ittifoqi, xususiy ta’lim tizimi, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash va b.);
5. ijtimoiy biznes tuzilmalarida (taksoparklar, logistika markazlari, havo yo‘llari, yo‘l qurilish sohasi va b.)
6. hokimiyat tizimida (tuman, viloyat, respublika) va boshqa shu kabi transport bilan bog‘liq sohalarda faoliyat olib borishi mumkin.

Umuman olganda mazkur yo‘nalish bo‘yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish quyidagi bir qator ijobjiy o‘zgarishlarga xizmat qiladi:

birinchidan, universitet nufuzining oshishiga xizmat qiladi;

ikkinchidan, transport sohasida faoliyat olib boruvchi bo‘lajak mutaxassislarga keng qamrovli bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishiga xizmat qiladi;

Uchinchidan, transport sohasida faoliyat olib borayotgan ishchi va xodimlar huquq va manfaatlarini munosib himoyalashga xizmat qiladi;

To‘rtinchidan, sohada faoliyat olib borayotgan ishchi va xodimlarning shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy muhit bilan bog‘liq kamchilik va muammolarini diagnoz qilish va prognozini amalga oshirish va tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Kadrlar tayyorlash va rivojlantirish tizimini doimiy rivojlanib boruvchi tashkilot prinsipiqa muvofiq shakllantirilishi lozim. To‘g‘ri tashkil etilgan tizimning kafolati mehnat bozoridagi raqobatga bardoshli va muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsata oladigan kadrlar bilan ta‘minlash imkonini yaratadi [4,5,6,7,8,9,10,11,12,13]. Chunki sohada malakali kadrlar yetishmasligi yoki zarur kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lmaslik, tashkilot rentabelligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi bilan birga mehnat unumdorligiga ta‘sir etib, rivojlanish darajasining pastaytirishi mumkin.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori - <https://lex.uz/docs/4805174>
2. Кекчеев К. Х. Психотехника и выбор профессии. – М., 1922. - С. 5.
3. Крымов В.В., Даниленко Л. А. Профориентация – метод рационального подбора и расстановки кадров. – М., 1978. – С. 10.
4. Sabirovna, A. N., & Juraevna, N. N. (2022). Important Aspects of the System of Social Work for Young People in Uzbekistan. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(6), 37-41.
5. Abdusalamovna, A. S., & Juraevna, N. N. (2022). A Strong Family as a Determining Development of Society. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(6), 31-36.
6. Рахмонов, Д. А., & Назарова, Н. Ж. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ПЕДАГОГИК ХОДИМЛАРНИНГ ХУҚУҚИЙ МАҚОМИНИ БЕЛГИЛАШНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 377-384.
7. Muratova, D. A. (2020). Socio-cultural directions of human transformation in the scientific development of uzbekistan. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 974-982.
8. Jo‘rayevna, N. N. (2022). KADRLAR KASBIY SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIKANING O ‘RNI. *PEDAGOG*, 1(4), 109-111.
9. Saminjon o‘g‘li, M. S., & Jo‘rayevna, N. N. (2022). PEDAGOGIK FAOLIYATDA AXBOROT-KOMMUNIKATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *PEDAGOG*, 1(4), 105-108.

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

10. Nazarova, N. (2020). *YOSHLARDA RAQOBATBARDOSHLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. O'zMU Xabarlari.*
11. Temirova, S. V., & Nazarova, N. J. R. (2022). SIYOSIY DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 357-360.
12. Navruzbek Shuhrat O'G'Li Jurakulov, Umar Muxiddin O'G'Li Qurbonov, & Aqida Abdujabbarovna Dadashева (2022). YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUAMMOLARI. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 2), 312-315.
13. Темирова, С. В., & Назарова, Н. Ж. (2022). ЁШЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШДА КОНСТИТУЦИЯНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 353-356.
14. Feruza Oy Kenja Qizi Abdinazarova, & Aqida Abdujabborovna Dadasheva (2022). FUQAROLIK HUQUQI: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI KONSTITUTSIYASI VA XORIJIY DAVLATLAR KONSTITUTSIYALARIDA. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 2), 305-311.
15. Temirova, S. V., & Nazarova, N. J. (2022). YOSHLARNING RAQOBATBARDOSH KADR BO'LIB SHAKLLANISHIDA KONSTITUTSIYANING O'RNI. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 349-352.
16. Чулпонова, Х. Т. (2022). СУЩНОСТЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 666-671.
17. Назарова, Н. Ж., & Абдуганиева, Г. А. (2019). Повышения эффективности духовно-нравственного воспитания в системе образования. *Экономика и социум*, (11), 495-500.
18. Муратова, Д. А., & Иброҳимов, ў. о. ў. (2022). ДУНЁ ХАМЖАМИЯТИДА ТЕХНОЛОГИЯ ИЖТИМОИЙ ЎЗГАРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 24-29.
19. Muratova, D. A. (2018). PSYCHIC GENOCIDE OF RELIGIOUS VIEV IN ZIGMUND FREYD RESEARCHES. *Теория и практика современной науки*, (3), 37-39.
20. Muratova, D. A., & Jumaniyazova, N. S. (2018). BERUNIY AND EUROPE. *Теория и практика современной науки*, (5), 24-26.
21. Muratova, D. A. (2022). Competence and Competency-Based Approach in Education. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.